

**BRONXIAL ASTMA BILAN OG'RIGAN BEMORLARNI DAVOLASHDA
SHAXSIYLASHTIRILGAN YONDASHUVLAR**

Ismailov Jamshid Abduraimovich - Samarqand davlat tibbiyot universiteti 4-son ichki
kasalliklar kafedrası mudiri PhD, dotsent

Omonov Xudoyor Shomurod o'g'li - Samarqand davlat tibbiyot universiteti mustaqil
izlanuvchisi

Tilavov Azizjon Nematovich - "Amirsaid shifo" klinikasi direktori

Bayitov Omon Ikromovich - Samarqand davlat tibbiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Rustamova Shaxrizoda Shuxratovna - Navoiy kon metallurgiya kombinat jamgarmasi
tibbiy sanitariya bulimi kattalar poliklinikasi vrach terapevti

ANNOTATSIYA. Maqolada bronxial astma bilan kasallangan bemorlarning hayot sifatini yaxshilashda shaxsiylashtirilgan rehabilitatsiya dasturlari samaradorligi o'rganildi. Tadqiqotda 120 nafar bemorlar ikki guruhga ajratilib tahlil qilindi: 1-guruhga kompleks rehabilitatsiya dasturi, 2-guruhga standart davolash usullari tayinlandi. Bemorlarning klinik holati SF-36 va SGRQ so'rovnomalari, shuningdek spirometriya natijalari asosida baholandi. Olib borilgan tadqiqot natijalariga asosan, 1-guruh bemorlarida hayot sifati va spirometrik ko'rsatkichlarida sezilarli ijobiy natijalar qayd etildi ($p < 0,05-0,01$), 2-guruhida esa o'zgarishlar nisbatan kam edi. Olingan natijalar bronxial astma bilan og'rigan bemorlarga nisbatan biopsixososial yondashuv asosidagi kompleks rehabilitatsiyaning yuqori samaradorligini ko'rsatadi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, sog'liqni saqlash tizimida bemorlarni rehabilitatsiyasiga oid yangi, samarali va individual yo'naltirilgan yondashuvlarni ishlab chiqish uchun asos yaratadi.

Kalit so'zlar: Bronxial astma, surunkali yurak etishmovchiligi, davolash, rehabilitatsiya, hayot sifatini yaxshilash.

АННОТАЦИЯ. В статье изучена эффективность персонализированных реабилитационных программ в улучшении качества жизни пациентов с бронхиальной астмой. В исследовании 120 пациентов были разделены на две группы для анализа: 1-й группе была назначена комплексная программа реабилитации, 2-й группе - стандартные методы лечения. Клиническое состояние больных оценивалось на основании опросников SF-36 и SGRQ, а также результатов спирометрии. По результатам проведенного исследования у пациентов 1-й группы отмечены значительные положительные изменения показателей качества жизни и спирометрии ($p < 0,05-0,01$), тогда как во 2-й группе изменения были относительно незначительными. Полученные результаты свидетельствуют о высокой эффективности комплексной реабилитации на основе биопсихосоциального подхода для пациентов с бронхиальной астмой. Практическая значимость исследования заключается в том, что оно создает основу для разработки новых, эффективных и индивидуально ориентированных подходов к реабилитации пациентов в системе здравоохранения.

Ключевые слова: Бронхиальная астма, хроническая сердечная

недостаточность, лечение, реабилитация, улучшение качества жизни.

ANNOTATION. The article examines the effectiveness of personalized rehabilitation programs in improving the quality of life of patients with bronchial asthma. The study analyzed 120 patients divided into two groups: the first group received a comprehensive rehabilitation program, while the second group was assigned standard treatment methods. The patients' clinical condition was assessed based on the SF-36 and SGRQ questionnaires, as well as spirometry results. According to the study findings, patients in the first group showed significant positive changes in quality of life and spirometric indicators ($p < 0.05-0.01$), whereas changes in the second group were relatively minor. The obtained results demonstrate the high effectiveness of complex rehabilitation based on a biopsychosocial approach for patients with bronchial asthma. The practical significance of the research lies in its potential to provide a foundation for developing new, effective, and individually tailored approaches to patient rehabilitation within the healthcare system.

Keywords: Bronchial asthma, chronic heart failure, treatment, rehabilitation, improvement of quality of life.

Oxirgi yillarda pulmonologiya sohasining rivojlanishida bemorlarning hayot sifatini yaxshilash masalasi keng miqyosda dolzarb bo'lib bormoqda. Surunkali somatik kasalliklar bilan og'rikan bemorlar salmog'ining ortishi, bemorlarning uzoq muddatli basis terapiyasi va reabilitatsiyaga chora tadbirlariga zarurat borligi, zamonaviy tibbiy qarashlarda hayot sifatiga alohida e'tibor qaratilish bugungi kunda dolzarb muammolardan biriga aylangan [4,6]. Butun hahon sog'liqni saqlash tashkiloti manbalariga ko'ra, hozirgi kunda hayot sifati bu jismoniy salomatlik, ruhiy holat, ijtimoiy muhit va bemorning o'z holatidan qoniqish darajasini o'z ichiga oluvchi turli qirrali kategoriya sifatida tushuniladi [WHOQOL Group, 1995].

Hozirda ko'plab chet-el va mahalliy tadqiqotlarda bemorlarmumn hayot sifatiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan muolajalarni ishlab chiqish bugungi kunda zarurdir. Chet-el tadqiqotchilari A. Smith va uning safdoshlari (2020) surunkali yurak yetishmovchiligi bilan kasallangan bemorlar o'rtasida olib borgan tadqiqotida shaxsiylashtirilgan psixosozial quvvatlash dasturlarida ayrim bemorlarning hayot sifati ko'rsatkichlarini ma'lum manoda yaxshilaganini aniqlagan edi [3,4,8]. Shunga o'xshash holatlarda, Respublikamiz sharoitida olib borgan ayrim klinik-amaliy tadqiqotlarida, bemorlarni davolashga bo'lgan psixologik motivatsiyasini oshirish va ularni sog'lom hayotga yo'naltirish orqali hayot sifatini barqarorlashtirish mumkinligini ilmiy natijalar bilan isbotlab berishgan. Bundan tashqari, tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarda ayrim bemorlarning psixoemosional holatini tahlili asosida individual yondashuv orqali tibbiy reabilitatsiya samaradorligini oshirish mumkinligi asoslab o'tilgan. Yuqoridagi va boshqa tadqiqotlar pulmonologik kasalliklar bilan og'rikan bemorlarning hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan strategiyalarni takomillashtirishda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi. BA etiologik omillar ta'siri ostida nafas yo'llarining funktsiyasi buziladi va o'pkada qolgan havo miqdori saqlanib qoladi - nafas olish tizimi uchun "tuzoq" deb ataladi, bu asosan kasallikning klinik ko'rinishlarini belgilaydi [1,2,3]. BA bemorlarini davolash uchun ishlatiladigan preparatlar, dinamik giperinflyatsiyani samarali bartaraf etish kerak va bu talab uzoq muddatli ta'sir qiluvchi zamonaviy ingalyatsion bronxodilatatorlar (antikolinergik preparatlar va β_2 -agonistlar) [56] bilan javob beradi. Ingalyatsion glyukokortikosteroidlar bemorlarida kombinatsiyalashgan terapiya tarkibida davolashda o'z o'rnini ega bronxial giperreaktivlikda, chiqarilayotgan havoda azot oksidi yuqori darajada bo'lganda va eozinofilili balg'amida samarali qo'llaniladi ($>3\%$) [7]. BA ni davolash uchun dori-darmonlarni tanlashda surunkali yurak yetishmovchiligi bilan

birgalikda quyidagilar bo'lishi kerak nafas olish dorilarining xavfsizligi haqida ishonchli ma'lumot yurak-qon tomir xavfi bilan bog'liq.

Yuqoridagi olib borilgan ishlardan ko'rish mumkinki bronxial astma bilan og'riqan bemorlarni kasallikning remissiya davrida reabilitatsiya qilish bugungi kunning dolzarb muammosiga aylanib bormoqda. Ushbu olib borilgan iashlarga asoslangan holda bronxial astma bilan kasallangan bemorlarning hayot sifatini yaxshilashning yangicha tamoyillarini ishlab chiqishga qarorqildik. o'ziga xos jihatlari, ya'ni kasallik turi, yosh, psixologik holat, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasi va tibbiy xizmat sifati bilan bog'liq omillar chuqur tahlil qilinadi. Ilgari o'rganilgan ilmiy ishlar asosida milliy sog'liqni saqlash amaliyotida qo'llash mumkin bo'lgan samarali yondashuvlar ishlab chiqiladi.

Tadqiqot materiallari va usullari

Bronxial astma bilan kasallangan bemorlarning reabilitatsiya chora tadbirlarining samaradorligini baholash uchun maqsadga erishishda 120 nafar 18-78 yoshgacha bo'lgan bemorlar tanlab olindi, ular ikki guruhga bo'lingan: Asosiy guruhga 60 nafar ($n=60$) – standart dori-darmonlarga qo'shimcha ravishda individual reabilitatsiya dasturi va psixologik qo'llab quvvatlashga jalb qilingan bronxial astma bilan kasallangan bemorlar jalb qilingan. Nazorat guruhi jalb qilingan bemorlar ham 60 nafar bo'lib ($n=60$) ular faqat standart davolash muolajalarini qabul qilishgan. Olib borilgan tadqiqotda bemorlarning hayot sifatining darajasini baholash uchun keng qo'llaniladigan SF-36 (Short Form-36 Health Survey) so'rovnoma anketasi ishlatildi. Shun bilan birga, bronxial astma xurujlarining og'irligini va nazorat darajasini aniqlash uchun ACT (Asthma Control Test) so'rovnomasidan foydalanildi. Bemorlarning klinik holatini aniqlash uchun diagnostik standart spirometriya uskunasi (BTL, Byuk Britaniya) yordamida bronxial bo'shlig'i o'tkazuvchanligi aniqlandi. Tadqiqot natijasida llingan barcha ma'lumotlar SPSS 26 statistik dasturida yordamida qayta ishlanib, tahlil qilindi. Statistik tahlilda o'rtacha qiymat, standart chetlanishlar, t , Pearson korrelyatsiyasi va ANOVA testi kabilar qo'llanildi. Olingan statistik natijalar $p<0,05$ darajasida ahamiyatli deb hisoblandi. Olib borilgan tadqiqot etik qo'mitaning tasdig'idan o'tkazilgan bo'lib, bizning bemorlardan tadqiqotda ishtirok etish uchun yozma rozilik ham olindi. Asosiy guruhdagi bemorlarni davolashda ingalyatsion steroidlar bilan birgalikda biologik preparatlar ham qo'llanildi.

Tadqiqot natijalari va uning muhokamasi.

Biz olib borilgan tadqiqotning natijalariga asosan, asosiy guruhdagi bemorlarning SF-36 so'rovnomasi bo'yicha asosiy hayot sifati ko'rsatkichlari nazorat guruhidagi bemorlarga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligi aniqlandi (1-jadval).

1 – jadval

SF-36 ko'rsatkichlari

SF-36 ko'rsatkichlari	Asosiy guruh (n=60)	Nazorat guruhi (n=60)	p
<i>Jismoniy faoliyat</i>	83,5±7,3	72,0±8,1	<0,01
<i>Ruhiy salomatlik</i>	76,6±6,7	67,8±7,5	<0,01
<i>Umumiy qoniqish</i>	82,4±5,6	71,05±6,7	<0,01

Ushbu yuqorida keltirilgan 1-jadvalda bronxial astma bilan kasallangan asosiy va nazorat guruhlaridagi bemorlarning SF-36 so'rovnomasi asosida baholangan hayot sifati ko'rsatkichlarining solishtirilgan natijalari keltirilgan. Olib borilgan tadqiqotimiz natijalariga asosan, individual reabilitatsiya usuli va olib borilgan psixologik yordam asosiy

guruh bemorlarining jismoniy faoliyati $83,5 \pm 7,3$ ballni, ruhiy salomatligi $76,6 \pm 6,7$ ballni hamda umumiy hayotdan qoniqish darajasi $82,4 \pm 5,6$ ballni; 60 nafar nazorat guruhidagi bemorlarning tegishli ko'rsatkichlardan mos ravishda $72,0 \pm 8,1$; $67,8 \pm 7,5$ va $71,05 \pm 6,7$ balldan sezilarli ravishda yuqoriligi statistik jihatdan ishonchli ekanligi ($p < 0,01$) o'z isbotini topdi.

2 – jadval

Ayrim spirografik ma'lumotlar

Ko'rsatkichlar	Guruhlar	Muolajalarda n avval	Muolajalardan keyin	p
FEV1 (%)	1- guruh	$72,2 \pm 5,6$	$79,5 \pm 6,8$	$< 0,05$
	2- guruhi	$70,6 \pm 6,3$	$71,6 \pm 7,2$	$> 0,05$
FVC (%)	1- guruh	$83,7 \pm 6,4$	$89,3 \pm 5,4$	$< 0,05$
	2- guruhi	$82,9 \pm 6,1$	$83,3 \pm 6,1$	$> 0,05$
FEV1/FVC (%)	1- guruh	$73,5 \pm 5,4$	$79,2 \pm 5,3$	$< 0,05$
	2- guruhi	$71,8 \pm 5,6$	$72,4 \pm 6,1$	$> 0,05$
PEF (L/min)	1- guruh	315 ± 42	384 ± 39	$< 0,01$
	2- guruhi	312 ± 44	325 ± 47	$> 0,05$

Ushbu 2-jadvalda bronxial astma bilan og'rigan asosiy va nazorat guruhlari bemorlarning spirometrik ma'lumotlari asosiy 1-guruh va nazorat 2-guruh guruhlari orasida taqqoslandi. Reabilitatsiya va standart muolajalardan keyingi natijalar asosiy guruhdagi bemorlarda barcha spirometriyaning barcha ko'rsatkichlari statistik jihatidan ishonchli ekanligi aniqlandi FEV1% – $79,5 \pm 6,8$; FVC% – $89,3 \pm 5,4$; FEV1/FVC% – $79,2 \pm 5,3$; va PEF – 384 ± 39 ; $p < 0,05-0,01$. Ikkinchi nazorat guruhida esa sezilarli ijobiy o'zgarishlar ($p > 0,05$) kuzatilmadi. Bu natijalar, kompleks muolajalar dasturining bemorlarning nafas yo'llari o'tkazuvchanligini yaxshilashda yuqori samaradorligini tasdiqlaydi (2-jadval).

Ikkala guruh bemorlarning ob'ektiv holati SGRQ so'rovnomasiga asosan baholandi.

3 – jadval

SGRQ so'rovnomasi natijalari

Ko'rsatkichlar	1 - guruh (n=60)	2 - guruh (n=60)	p
Simptomlar	$72,9 [72,5-74,6]$	$68,1 [62,0-74,3]$	$< 0,05$
Aktivlik	$12,5 [12,5-12,6]$	$12,5 [12,2-12,6]$	$< 0,05$
Kasallikning ta'siri	$23,8 [21,6-24,9]$	$23,8 [22,7-24,9]$	$< 0,05$
Umumiy ko'rsatkichlar	$28,0 [26,9-29,1]$	$27,7 [26,4-29,0]$	$< 0,05$

Yuqoridagi so'rovnomani to'ldirish natijalariga ko'ra BA da "simptomlar" aktivlik, kasallikning ta'siri kabi ko'rsatkichlarda ayrim ma'lumotlar aniqlandi. "Aktivlik" va "Kasallikning ta'sir" past parametrlarni ko'rsatdi. Statistik tahlil natijalari bo'yicha guruhlar o'rtasida farqlar aniqlanmadi.

Biz tomonimizdan olib borilgan tadqiqotlarda aniqlandiki, bronxial astma bilan og'rigan bemorlarda shaxsiylashtirilgan reabilitatsiya va psixologik yordam umumiy davolash strategiyasining muhim qismi sifatida ijobiy samaradorlikka egadir. 1-guruhda SF-36 so'rovnomasida hayot sifati ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan ishonchli darajada ancha yuqori bo'ldi ($p < 0,01$). Alohida e'tiborlisi, jismoniy faoliyat, ruhiy salomatlik va umumiy qoniqish bo'yicha ancha sezilarli ijobiy o'zgarishlar aniqlandi. Bu esa bemorlarning psixosotsial holatini

hisobga olgan holda, ularga shaxsiy yondashuv qo'llash kasallik belgilarini, balki hayot sifatini ham yaxshilashga xizmat qiladi.


Spirografik ko'rsatkichlar asosida ham shuni aytish mumkinki, 1-guruhdagi bemorlarda ko'rsatkichlarida sezilarli darajada yaxshilanishi qayd etildi ($p < 0,05-0,01$). 2-guruhda esa bu ko'rsatkichlarda muhim o'zgarishlar sezilmadi ($p > 0,05$). Natijalar esa kompleks reabilitatsiya tadbirlarining bronxial astma bilan bog'liq nafas yetishmovchiligini bartaraf qilishdagi klinik ahamiyatini bildiradi.

SGRQ so'rovnoma natijalari asosida asosiy guruhda "simptomlar", "aktivlik" va "kasallikning ta'siri" bo'yicha ko'rsatkichlar yaxshilanganligi kuzatildi. Uchala parametrdan ham asosiy guruhda ijobiy dinamika aniqlandi ($p < 0,05$), bu esa nafaqat funksional ko'rsatkichlar, bemorlarning kasallik bilan bog'liq holatlarini ham inobatga olish muhimligini ko'rsatadi.

4 - jadval

Metalloproteinaza - 9 (MMP 9) va GATA-3 transformatsiya faktorining miqdor ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	1 - guruh (n=60)	2 - guruh (n=60)	p
Muolajadan oldingi natijalar			
GATA-3	$3,8 \pm 0,21$	$3,6 \pm 0,19$	$< 0,05$
MMP 9	$558 \pm 41,5$	$543 \pm 42,1$	$< 0,05$
Muolajalardan keyinga natijalar			
GATA-3	$2,1 \pm 0,16$	$3,3 \pm 0,17$	$< 0,05$
MMP 9	$281 \pm 31,3$	$520 \pm 31,4$	$< 0,05$



1-rasm. MMP 9) va GATA-3 transformatsiya faktorining korrelyatsion bog'liqligi

Tadqiqot davomida bronxial astma bilan kasallangan bemorlarda GATA - 3 va MMP - 9 ko'rsatkichlari darajasi orasidagi bog'liqlik muhim ahamiyatga ega. Olingan natijalariga ko'ra, 1-guruhdagi bemorlarda muolajadan oldin GATA-3 va MMP-9 darajasining balandligi qayd etilgan bo'lsada muolajadan keyin ularning miqdori sezilarli darajada kamayishi aniqlandi. Bu parallel kamayish natijasida ko'rsatkichlar orasidagi kuchli ijobiy korrelyatsiyadan ($r \approx 0,8-0,9$) darak beradi. Bu esa muolajalar samaradorligini anglatadi, ya'ni bizda Th2 hujayralari orqali yuzaga keladigan immun yallig'lanish bilan bir qatorda bronxial devorning qayta qurilishi ham kamayganligini anglatadi. Klinik nuqtai nazardan bunday o'zgarishlar astma simptomlarining yengillashishi va muolaja natijasi yaxshilanishi bilan bog'liqdir. 2-guruh bemorlarid esa muolajadan keyin GATA-3 darajasi faqat sezilsiz darajada kamaygan, MMP-9 deyarli yuqori

darajada saqlanib qolganligi aniqlandi. Ushbu holatda ko'rsatkichlar orasida faqat o'rtacha korrelyatsiya ($r \approx 0,4-0,5$) aniqlandi. Ushbu natija shuni anglatadiki, muolaja immun yallig'lanishga ma'lum darajada ta'sir qilgan bo'lsa-da, bronxial remodellasiyani belgilovchi MMP-9 ni yetarli darajada kamaymagan. Natijada bronxial devor fibrozi va havo oqimining cheklanishi davom etib, kasallikning og'ir kechishi saqlanib qolgan. GATA-3 va MMP-9 orasidani korrelyatsion tahlil shuni ko'rsatadiki, og'ir bronxial astma patogenezaida immun yallig'lanish va bronx devorining qayta qurilishi o'zaro uzviy bog'langan bo'lib, muolaja samaradorligi bu ikkala biomarkerning birgalikdagi dinamikasi orqali baholanishi mumkin. Tadqiqot natijalari sog'liqni saqlash tizimi uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin, bronxial astma bilan kasallanganlarni kompleks yondashuv asosida rehabilitatsiyaga jalb qilish zarurligini ko'rsatadi. Ayniqsa, psixologik qo'llab-quvvatlovchi asosiy omillarni hisobga olgan holda tuzilgan individual dasturlar kasallik kechishini yengillashtirib qolmay, balki bemorning hayot sifatini yaxshilaydi, bemorlar ijtimoiy faolligini oshiradi va kasallik ustidan nazoratni stabilashtiradi.

Biz tomonimizdan o'tkazilgan ushbu kichik tadqiqot natijalariga ko'ra, bronxial astma bilan og'riqan bemorlarda shaxsiylashtirilgan muolaja va rehabilitatsiya dasturlari yuqori berishi aniqlandi. Birinchi guruhdagi bemorlarda SF-36 va SGRQ so'rovnomalari, spirometriya natijalarining ahamiyatli yaxshilanishi kuzatildi, ushbu natija esa nafaqat jismoniy salomatlik, balki ruhiy holat va umumiy hayot sifatining ham ijobiy o'zgarishlaridan dalolat beradi. Shuningdek GATA-3 va MMP-9 darajalarida sezilarli pasayish aniqlandi, ushbu natija immun yallig'lanish va bronx devorining qayta qurilishi sekinlashganligini anflatadi. Nazorat guruhidagi 60 nafar bemorlarda esa asosiy ko'rsatkichlarda sezilarli natijalar aniqlanmadi. Shaxsiylashtirilgan, kompleks va psixologik qo'llab-quvvatlashga asoslangan muolajalar bronxial astma bilan og'riqan bemorlarning klinik holatini yaxshilashda, kasallik ustidan nazoratni kuchaytirishda va hayot sifatini oshirishda muhim o'rin tutishini anglatadi. Bu tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, sog'liqni saqlash tizimida bronxial astmani kompleks davolash va rehabilitatsiya qilishda individual yondoshuvlarni joriy etish uchun ilmiy asos yaratishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Агабабян И. Р., Садыкова Ш. Ш., Рузиева А. А. Оценка состояния больных, перенесших инфаркт миокарда, осложненный хронической сердечной недостаточностью на фоне приема кардиопротекторов //Достижения науки и образования. – 2020. – №. 2 (56).
2. Бонцевич Р. А. и др. Бронхиальная астма–фармакоэпидемиологический срез знаний врачей. Итоги исследования «ASSA-III» //Вестник современной клинической медицины. – 2024. – Т. 17. – №. 2. – С. 23-33.
3. Визель А. А., Визель И. Ю., Амиров Н. Б. Хроническая обструктивная болезнь легких (ХОБЛ). Перемены как повод для обсуждения //Вестник современной клинической медицины. – 2015. – Т. 8. – №. 1.
4. Чучалин А. Г. Хроническая обструктивная болезнь легких и сопутствующие заболевания //Пульмонология. – 2020. – №. 2. – С. 5-14
5. Sulianto H. Pengaruh ekstrak daun strawberry (*fragaria vesca* l) terhadap aktivitas spesifik katalase (ec 1.11. 1.6) darah dan paru tikus sprague dawley yang diinduksi hipoksia : duc. – Universitas Tarumanagara, 2020.
6. Mazić S. Značaj osobnog plana liječenja astme (OPLA) za bolesnika s astmom i zdravstveni sustav : duc. – University of Zagreb. Faculty of Pharmacy and Biochemistry, 2024.
7. Topalušić I. et al. Astma u djece-osvrt na kraju 2024. godinene //Paediatrica Croatica. – 2024. – Т. 68. – №. 4. – С. 199-205.